

PIRLS TADQIQOTI ASOSIDA TUZILGAN “TANISH IZLAR” MATNI VA TOPSHIRIQLARI USTIDA ISHLASH

Amonova Aziza Saydulloyevna
Navoiy davlat universiteti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi (boshlang'ich ta'lim)
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada PIRLS tadqiqotining natijalari, o'quvchilarning yutuqlari muhokamasi haqida fikrlar bildirilgan. O'qish savodxonligi yo'nalishi bo'yicha “Tanish izlar” matni ustida tahlil jarayonlari amalga oshirilgan. O'quvchilar har bir matn ustida ijodiy yondashishlari kerak.

Kalit so'zlar: PIRLS, o'qish savodxonligi, “Tanish izlar”, matn, topshiriq, tez, ifodali, to'g'ri, ongli

Annotation: This article states the views of the results of the PIRLS research, discussion of students' achievements. Analyzing processes on the text of "Familiar tracks" in the direction of reading literacy has been implemented. Students need to make creative approaches on each text.

Key words: PIRLS, reading literacy, "Familiar tracks", text, assignment, fast, expressive, correct, conscious

Аннотация: В этой статье указываются взгляды результатов исследования PIRLS, обсуждение достижений студентов. Было реализовано анализ процессов в тексте «знакомых треков» в направлении чтения грамотности. Студенты должны создавать творческие подходы в каждом тексте.

Ключевые слова: PIRLS, чтение грамотности, «знакомые треки», текст, задание, быстрое, выразительное, правильное, сознательное

KIRISH

Turli mamlakatlarda o'tkazilgan PIRLS tadqiqotining natijalari pedagogik hamjamiyat tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Maktab o'quvchilari yutuqlari natijalarini monitoring qilish mexanizmlari joriy etilmoqda, o'quv texnologiyalari va boshlang'ich maktab o'quvchilarining o'quv yutuqlariga aqo'yiladigan talablar ko'rib chiqilmoqda. Xalqaro test topshiriqlari asosida maktab o'quvchilari, pedagogik jamoalar va innovatsion o'qituvchilarning savodxonligini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar nafaqat o'quvchilarning ilmiy yutuqlarini baholashga, balki birinchi navbatda o'qish madaniyati va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu mamlakatdagi yoshlarning bilim olishidagi muhim omildir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'qish saviyasi ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarning bilim olish va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Buning uchun turli xil tadqiqotlar o'tkazilib, o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini baholashga qaratilgan metodologiyalar ishlab chiqilgan. Shulardan biri – Progress in International Reading Literacy Study (PIRLS) tadqiqoti. Ushbu maqolada PIRLS tadqiqotida foydalanilgan matnlar va topshiriqlar ustida ishlash jarayoni tahlil qilinadi. PIRLS tadqiqotida foydalaniladigan matnlar o'quvchilarga turli mavzularni yoritishga yordam beradi. Quyida “Tanish izlar” matnini havola etaman. Bu matn bo'yicha bir qancha topshiriqlar ham berilgan.

“Tanish izlar”

Nikitaning bobosi bog'bon. Bo'sh vaqtlarida ov qilishni sevadi. U yaxshi ovchi ham edi. O'rmon sirlarini yaxshi biladi. Nevarasini ham birga olib yurganda, o'rmondagi izlarni ko'rsatardi ko'rsatib turib, shunday deb ta'kidlardi: -Asr yasha, asr o'rgan va bil. Bilim hech qachon ortiqchalik qilmaydi. Nikita bobosini tinglab, o'zicha o'ylardi: “Barcha keksalar bolalarga aql berishga usta. Hayvon izlarini bilish menga nima keragi bor, qachonki men mashinist bo'lmoqchiman. Elektr poyezdlarini haydayman”. Nikita faqat poyezdlar haqida o'ylardi. Elektrovozlardagi har bir bolt, har bir qismni ko'zdan kechirardi. Bolalar ham u bilan poyezdlarni tomosha qilgani borishardi. Bir marta bekatdan qishloqqa to'g'ri yo'ldan o'rmon orqali qaytishga to'g'ri keldi. Ham yaqin, ham kayfiyat a'lo.

Birinchi qor ustidan quvnoq yugurib ketdilar. Qor ustida esa turli xil izlar. Izlar nimaniki ekanligini bolalar bilishmay ustida yugurishadi. Balki tulkini yoki yovvoyi echkini ko'rib qolisharmidi?! Quyinni ko'rib qolishsa ham ajab emas. Izlar ustida yugura-yugura oxiri adashib qolishdi. Bolalar qo'rqib ketishdi. Kimdir hatto yig'ladi ham.

Bu sening gaping bilan bo'ldi, Nikita...Endi o'rmondan qanday chiqib olamiz? Axir odam yuradigan yo'lkalor qor bilan qoplandi. Nikita jim, o'zini oqlamadi. Balki biror kishi bu kimsasiz o'rmonda uni “eshitarmiz” deb o'ylardi. Birdan Nikita qor ustida izlarni ko'rib qoldi. Bobosi ko'rsatgan ko'p izlardan faqat shu izlarni esda saqlab qolgan edi. -Ure, bolalar!-qichqirdi Nikita. -Mening izimdan yuringlar. Sizlarni yashash joyiga olib boraman. Bolalar Nikita ko'rsatgan izlar ortidan uzoq yurdilar va yashash manziliga keldilar. O'rmon qo'riqchisining uyiga. Qo'riqchining uyidan qishloqqacha esa qatnov yo'li. Tunda ham adashmaysan.

-Sen bizni qanday izlar orqali olib chiqding? - so'lashdi bolalar Nikitadan .

-It izlari orqali, -javob berdi u.

-It izlari doim yashash joyiga olib keladi. Chunki, it o'rmonda qancha yugurmasin, albatta uyga qaytadi. Buni menga buvam o'rgatganlar. Nikita uyga

charchab qaytgan bo'lsada, juda baxtli edi. Bir lahza u bobosini qattiq quchoqlab oldi va qulog'iga nimalardir deb pichirladi. Balki mehribon bobosiga "rahmat" aytgandir.

"Tanish izlar" matniga savollar.

1. Nikitaning bobosi bo'sh vaqtida nimani yoqtirardi?

- a. baliq tutishni
- b. gazeta o'qishni
- d. ov qilishni
- e. televizor ko'rishni

2. O'rmonda bobosi Nikitaga nimalarni ko'rsatardi?

- a. hayvonlarni
- b. izlarni
- d. daraxtlarni
- e. tabiatni

3. Izlarni ko'rsatib turib, bobosi Nikitaga nimani ta'kidlardir? Asr yasha, asr o'rgan va bil. Bilim hech qachon ortiqchalik qilmaydi.

4. Nega Nikita bobosining hayvon izlari haqidagi gaplarini tinglamasdi? "Barcha keksalar bolalarga aql berishga usta. Hayvon izlarini bilish menga nima keragi bor, qachonki men mashinist bo'lmoqchiman. Elektr poyezdlarini haydayman"

5. Bolalar bekatda uyga o'rmon orqali kelayotganlarida nima sodir bo'ldi?

- a. ular uxlab qolishdi
- b. ular ovqatlangani o'tirishdi
- d. ular adashib qolishdi
- e. ular ota-onalariga qo'ng'iroq qilishdi

6. Bolalarning o'rmondagi qo'rquvi, hayajoni aks ettirilgan gaplarni topib yozing
Bolalar qo'rqib ketishdi. Kimdir hatto yig'ladi ham.

7. Bolalar o'rmonda qaysi hayvonlarni uchratishni xohlashdi? Tulki, yovvoyi echki va quyon

8. Bolalarni o'rmonga qanday kayfiyat olib kirdi?

- a. qo'rqinchli
- b. xush
- d. ezgin
- e. hech qanaqa

9. Nikita bolalarini o'rmondan nimaning izlariga qarab olib chiqdi?

- a. bobosining izlariga qarab
- b. itning izlariga qarab
- d. quyon izlariga qarab
- e. o'zining izlariga qarab

10. Itning izlariga qarab, yashash manziliga yetib olish mumkin ekanligiga isbot, dalil keltir? It o'rmonda qancha yurmasin, uyiga qaytadi

11.Nikita uyga qaytganida holati qanday edi? Charchagan

12.Nima deb o'ylaysiz, Nikita bobosining qulog'iga nimalar deb pichirladi?

Rahmat

13.Hikoyada Nikitaning qaysi xatti- harakati ushbu hikmatga to'g'ri keladi .

“Bilgan ergashtiradi, bilmagan ergashadi” Hamma bolalarni ergashtirib qo'riqchining uyiga olib borgani

14.Hikoya nimaga o'rgatadi?

a.kattalar nasihatiga quloq tutish

b.har narsani kuzatib borish

d. noxush vaziyatlarda hayajonlanmaslik

e. minnatdor bo'lish

MUHOKAMA VA NATIJA

Boshlang'ich sinf o'quvchilari avvalo, matnni diqqat bilan tushunib o'qishlari zarur. Matndagi aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topishi kerak. Bundan tashqari, o'quvchilar o'qish malakasi sifatleri ya'ni to'g'ri, ongli, ifodali, tez o'qish jarayonlarini ham amalga oshirishlari kerak. Matn ustida mantiqan fikr yuritishi, mulohaza qila olishi kerak. Har bir topshiriqni ikki marta o'qib uni ma'nosini tushunib savollarga aniq va lo'nda javob berishi lozim. Boshlang'ich sinflar uchun xos bo'lgan “Tanish izlar” matni PIRLS tadqiqotiga kiritilgan. Bu matnda Nikita bosh qahramon. Bobosining aytgan nasihatlar kun kelib, Nikita va uning do'stlari uchun asqotdi. Bu matnning o'ziga xosligi shundaki, har bir boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh doirasiga mos. O'quvchilar bu matnni o'qib individual tarzda har birlari xulosa qila olishlari darkor. Har bir matndan olgan g'oyalarini keyinchalik tatbiq qilsalar, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Topshiriqlar ustida ishlash

PIRLS tadqiqotida beriladigan topshiriqlar o'quvchilarning matnlarni qanday tushunishini baholashga qaratilgan. Topshiriqlar uchta asosiy kategoriya bo'yicha tasniflanadi:

1. Matnni tushunish savollari: Bu savollar o'quvchilardan matnning asosiy g'oyasini, voqealar ketma-ketligini yoki qahramonlarning motivlarini aniqlashni talab qiladi. Masalan, "Qahramon nima uchun bunday qaror qabul qildi?" kabi savollar orqali o'quvchilar matnni chuqurroq tahlil qilishga undaladi.

2. Tahlil va baholash savollari: Ushbu savollar o'quvchilardan matndagi fikrlarni tahlil qilish va ularning ahamiyatini baholashni so'raydi. O'quvchilar shaxsiy fikrlarini bildirishlari va matndagi g'oyalarni baholashlari kerak.

3. O'qish strategiyalarini qo'llash: O'quvchilarga berilgan topshiriqlar orqali ular o'qish jarayonida qanday strategiyalarni qo'llayotganini aniqlash mumkin. Masalan, "Matndan qanday asosiy fikrlarni ajratib ko'rsatdingiz?" kabi savollar orqali o'quvchilar o'z strategiyalarini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. PIRLS tadqiqoti

natijalari ta'lim tizimlarining samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega. Olingan ma'lumotlar mamlakatlarga o'z ta'lim tizimlarini takomillashtirish va o'quvchilarning o'qish saviyasini oshirish uchun zarur choralarni ko'rishga yordam beradi. O'qish saviyasini oshirish uchun pedagoglar va ta'lim mutaxassislari matnlar va topshiriqlar ustida ishlash jarayonini chuqurroq tahlil qilishlari zarur.

XULOSA

PIRLS tadqiqoti nafaqat o'quvchilarning o'qish saviyasini baholash, balki ta'lim tizimlarini yaxshilash uchun samarali vosita hisoblanadi. Matnlar va topshiriqlar ustida ishlash jarayoni orqali o'quvchilar nafaqat bilim olishadi, balki fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Ta'lim sohasidagi barcha ishtirokchilar uchun bu jarayonni yanada takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash muhimdir. PIRLS dasturining o'qish savodxonligi yo'nalishi bo'yicha respublikamizning har bir viloyatida ishlar olib borilyaptai. O'qish savodxonligi bo'yicha yuqori darajada matnlar va topshiriqlar ishlanyapti.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet
2. Ismailov A. va boshq. Toshkent: "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi", 2021. – 140 b
3. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash" metodik qo'llanma. Toshkent-2019
4. P., & Yin, L. (2017). Scaling the PIRLS 2016 Achievement Data. In M. O. Martin, I. V. S. Mullis, & M. Hooper (Eds.), *Methods and Procedures in PIRLS 2016* (pp. 12.1-12.38). Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center website: <https://timssandpirls.bc.edu/publications/pirls/2016-methods/chapter-12.html>
5. Qorayev S.B., Allayorova S.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturi tizimiga tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari. *Academic research in educational sciences volume 2 | ISSUE 2 | 2021. ISSN: 2181-1385. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 / DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00217. 443-448-b*